

## INKLUZIV TA'LIMDA AQLI ZAIF BOLALAR TA'LIMINI TASHKIL ETISH

Irgasheva Durдона To'xtasin qizi

Sirdaryo viloyati 71-sonli mahsus maktab-internat logopedi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10645203>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Inklyuziv ta'lim tizimida Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishida nihoyatda yuqori e'tiborni talab qiluvchi inklyuziv ta'limni tashkil etishning maqsad va vazifalari haqida tavsiya keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Oligrefrenopedagogika, inklyuziv ta'lim, aqli zaif o'quvchilar, ta'limni tashkil etish.

## ORGANIZATION OF EDUCATION OF MENTALLY RETARDED CHILDREN IN INCLUSIVE EDUCATION

**Abstract.** In this article, there is a recommendation about the goals and tasks of organizing inclusive education, which requires extremely high attention in the education of children with disabilities in the inclusive education system.

**Key words:** Oligrefrenopedagogy, inclusive education, students with mental retardation, organization of education.

## ОРГАНИЗАЦИЯ ОБУЧЕНИЯ УМСТВЕННО ОТСТАЛЫХ ДЕТЕЙ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация.** В данной статье представлены рекомендации о целях и задачах организации инклюзивного образования, что требует крайне высокого внимания при обучении детей с ограниченными возможностями здоровья в системе инклюзивного образования.

**Ключевые слова:** олигrefренпедагогика, инклюзивное образование, студенты с задержкой психического развития, организация образования.

Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'i nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi.

Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Aqli zaif bolalarni o'rganish va ularga yordam tashkil etish masalalari, aqli zaif bolalarni o'qitish va milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda ishtimoiy-pedagogik omillar haqida, aqli zaif bolalar tasnifi hamda uning aqli zaif bolalar uchun maxsus muassasalarni differensiyalashdagi ahamiyati hamda yordamchi maktab o'quvchilarining pedagogik tasnifi borasida ma'lumotlar berishni ko'zda tutadi. Aqli zaiflikning yengil darajalarida bu nuqson tashqaridan qaraganda uncha ko'zga tashlanmaydi.

Nuqsonli bolalarni diagnostika qilish ishlaridagi xatoliklar ba'zi hollarda ko'ngilsiz natijalarga olib kelishi mumkin. Masalan, ommaviy maktabga tushib qolgan aqli zaif bola nuqsonsiz tengqurlari singari ular bilan birga o'quv materiallarini o'zlashtira olmaydi. O'z vaqtida malakali yordam olmagandan keyin borgan sari bunday bolalarning bilim saviyasi pasayib, surunkali o'zlashtirmovchilar qatoriga kirib qoladilar. Xuddi shu tarzda aqli zaiflar qatoriga noto'g'ri qo'shib qo'yilgan nuqsonsiz bola sun'iy ravishda o'z rivojlanishida orqada qola

boshlaydi. Chunki nuqsonli bolalar ta'limi materiallari unga yengillik qiladi, u o'z ong-bilim doirasiga mos bilim olmasligi natijasida uning aqliy rivojlanishi sekinlashadi.

Yordamchi maktab dasturi materiallari elementar, soda mazmunda tuzilganligi uchun nuqsonsiz bolalarning bilishga bo'lgan talablarini qondira olmaydi. Bolaning aqliy rivojlanishigina emas, balki umumiy rivojlanishi ham orqada qoladi. Bulardan tashqari, bunday bolalarning ota-onalariga ham og'ir ruhiy ta'sir yetkaziladi. Bunday noxush, ko'ngilsiz holatlar aqli zaiflikning mohiyatini tushunib yetmaslik natijasida sodir bo'ladi.

Shuning uchun oligofrenopedagogikada aqli zaiflik masalasi alohida o'rganishni talab etadigan mavzulardan biridir. Aqli zaiflik deganda me'yoriy ruhiy rivojlanishdan chetlashib, haqiqiy, aynan aqliy nuqsonlikka olib keluvchi holat tushuniladi. Bunday holat «aqli zaiflik» nomi bilan atala boshlandi. Bu yerda «aqli qoloqlik» bilan «aqli zaiflik» tushunchasi orasida hech qanday farq yo'q. Ammo keyingi yillarda «aqli qoloqlik» tushunchasiga e'tibor kuchaymoqda. Qandaydir ilmiy asoslar yetarli bo'lmas-da, turli manbalarda ba'zan bir-birini to'ldiruvchi fikrlar uchrab turadi. «Aqli zaif» yoki «aqli kam» tushunchalarida aqlning yetarli emasligi qayd etiladi. «Aqli qoloqlik»likda esa aqlning yetarli emasligini e'tirof etish bilan birga, aqlning rivojlanish imkoniyatlarini inkor etmaydi. Chunki sekinlashish, orqada qolish deganda rivojlanish to'xtagan degan ma'no kelib chiqmaydi.

Yordamchi maktablardagi ta'limning umumiy vazifalari maxsus aqli zaif o'quvchilar nuqsonlarini tuzatish vazifasi bilan birga olib boriladi. Shu sababli yordamchi maktablardagi ta'limning asosiy, zaruriy xususiyatlaridan biri uning nuqsonni tuzatishga yo'nalganligida bo'lsa, ikkinchi xususiyati, uning bolaning rivojlanishida o'ziga xos amalga oshirilishidir.

Bosh miya faoliyatlari nuqsoni asosida aqli zaif o'quvchilarning rivojlanishi cheklangan bo'lib, orqada qoladi. Aqli zaif bola kam rivojlangan emas, balki o'zgacha rivojlangan va rivojlanayotgan boladir. Uning rivojlanishi nuqsonli ravishda boradi. Aqli zaif o'quvchining bilish faolligi va mustaqilligi birmuncha past bo'ladi. Bu kamchilik ularning bevosila hayot qiyinchiliklariga duch kelganlarida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, yordamchi maktab ta'limi sodda, o'quvchilar nuqsoniga moslab, mexanik tarzda berilishi tufayli har doim ham kutilgandey natija bermaydi. Shu sababli o'quv materiallari qancha sodda bo'lmasin, albatta ongli, tushunarli tarzda berilishi kerak. Shundagina bu ta'lim o'quvchilar nuqsonlarini tuzatishga yordam beradi. Yordamchi maktabdagi ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarning bilishi olishiga, zarur ko'nikma va malakalar hosil qilishiga xizmat ko'rsatadi.

Oligofrenopedagogning faoliyati deganda o'qitish, yordamchi maktab o'quvchilariga bilim berish tushuniladi. Talimda esa o'qituvchining vazifalari birmuncha kengayadi, ya'ni o'qituvchi bilim berish bilan kifoyalanib qolmasdan, ko'nikma, malakalar ham beradi. Mustaqil bilim egallash yo'llarini tushuntiradi. Shu bilan birga o'quvchilarning bilish faoliyatlariga rahbarlik qiladi va uni boshqarib boradi. O'quvchilar faoliyati deganda ularning ma'lum bilimlar yig'indisini egallab borishlari tushuniladi. Ta'lim bilan o'qish bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bilim egallash ta'lim jarayonining asosini tashkil qiladi va uning asosiy mohiyatini belgilaydi.

Bilim, ko'nikma, malakalar egallash jarayonida aqli zaif o'quvchilarning bilish jarayonlari shakllanib boradi hamda ularning hissiyot-iroda sifatleri rivojlanadi.

Shular oqibatida o'quvchilarning bilimga qiziqishi, ish qobiliyatlari, Tirishqoqlik kabi shaxsiy sifatleri takomillashib, ular bir butunligicha tarbiyalanib, hayotga bo'lgan munosabatlari shakllanib boradi.

Aqli zaif bolalardagi dunyoqarashning juda murakkab va dinamik jarayon ekanligi ba'rha ta'lim bosqichlarida izchil ish olib borishni talab etadi. Har bir insonning hayotida yangi bilimlar, tajribalar oldin egallangan bilimlar tizimiga albatta ta'sir etadi. Yangi bilim, dalillarni egallab boorish asosida bolalarning atrof-ruhiyatga, boshqa kishilarga munosabati o'zgarib boradi. Shu tariqa ta'lim jarayonida aqli zaif bolalarda uni o'rab olgan muhitga munosabatning dinamik tizimi tarkib topa boradi.

Aqli zaif bolalar bilan ishlashda o'qituvchining vazifasi:

- Umumta'lim maktablarida o'qiyotgan aqli zaif bolalarni bilish faoliyati bilan sog'lom bolalar bilish faoliyatlarini farqlay bilish lozim.

- Sog'lom bolaga qo'yilgan o'quv-dastur talabini aqli zaif bolaga qo'llamaslik.

- Dars jarayonlarida aqli zaif bolalarni o'zlashtirish qobiliyatiga mos keladigan vazifalar berib boorish lozim.

- Bolani darslarni o'zlashtirmasligi uchun o'quvchilar o'rtasida izza qilmasdan, balki uning ayrim yutuqlarini hisobga olib rag'batlantirish choralari ko'rish.

- Umumiy aqli zaif bolalarni umumta'lim maktablarida o'qitish ishi o'qituvchi oldida ancha murakkab muammolarni keltirib chiqaradi.

Bu o'rinda o'qituvchilarimiz ularning ota-onalari bilan hamkorlikda ish olib borishi, bolalarini xarakter xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan dars jarayonida ish olib borish muhim ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda umumta'lim maktablarida o'z sog'lom tengqurlari qatorida o'qiydigan bolalarga o'qitish va ta'limni to'g'ri tashkil qila bilish har bir o'qituvchini mas'uliyatli burchi bo'lib qolishi kerak. Nuqsonli bolalarni hayotda o'z o'rnini topishi, kelajakda o'z mehnati evaziga hayot kechirish ko'nikmasiga ega bo'lish, o'qituvchilarimizning oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

## REFERENCES

1. «Inklyuziv ta'lim» muvaqqat Nizomi. 2005 yil.
2. Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish to'g'risida muvaqqat NIZOM. O'RXTV T., 19 syentyabr, 2005.
3. gazeta .uz.
4. Tovbayevna, M. N., & Nosirova, M. (2021). Methods Of Organizing Geography Lessons For Childrenpeople With Disabilities Inclusive Education. JournalNX, 7(03), 187-190.
5. Khudayberdievich, R. B., Tavbaevna, M. N., Muratovna, N. S., Djumanovna, T. M., & Kurbanovna, T. R. (2019). Educating research approach in future teachers. Journal of Critical Reviews, 7(4), 2020.
6. Ilhomovna, M. S. (2021, July). HEALTHY ENVIRONMENT-HEALTHY COMMUNITY. In Archive of Conferences (pp. 62-66).
7. Ilhomovna, M. S. (2022). SIGNIFICANCE AND ROLE OF PEDAGOGICAL CREATIVITY.